



RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA
ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI
HIMOYA QILISH QO'MITASI

marketing.uz

BOSH HAMKOR

octobank

TAF!25 DOIRASIDA O'TKAZILADIGAN "YIL REKLAMASI" KO'RGAZMASI HAQIDA MA'LUMOT

O'zbekiston Marketing Uyushmasi ushbu tadbirning tashkilotchisi sifatida sizning ekspozitsiyangiz eng samarali tarzda taqdim etilishi uchun barcha choralarni ko'radi. Iltimos, ko'rgazmaga tayyorgarlik jarayonida yuzaga keladigan savollar bilan bizga murojaat qiling.

Sizga ko'rgazma ishtirokchisi uchun qo'llanmani taqdim etamiz, u muhim ma'lumotlar hamda stendlarni bezatishga oid texnik talablarni o'z ichiga oladi.

Ishtirokchilar uchun tezkor masalalarni hal qilish maqsadida Telegram chat yaratiladi.

Barcha savollar bo'yicha murojaat uchun: +97 402 28 20, +97 037 28 20

KO'RGAZMANING ISH JADVALI

- 10 oktyabr, juma
00:00 – 01:00 (tungi vaqt): Maydonni belgilash
01:00 – 24:00: Materiallar va uskunalarni olib kirish. Stendlarni montaj qilish
- 11 oktyabr, shanba
00:00 – 07:00: Stendlarni Tashkilotchi tomonidan qabul qilish
09:00 – 22:00: Ko'rgazma ish vaqti
23:00 dan boshlab: Stendlarni demontaj qilish
- 12 oktyabr, yakshanba
09:00 – 14:00: Demontaj, yakuniy tozalash

KO'RGAZMADA ISHTIROK ETISH TARTIBI

1. Stend tanlash va TAF! konferensiyasi saytida (marketing.uz) ko'rgazma bo'limi orqali yoki Assotsiatsiya menejerlari orqali ariza topshirish
2. Ko'rgazmada ishtirok etish bo'yicha shartnoma asosida to'lov qilish
3. Sayt uchun logo va Assotsiatsiya resurslarida joylashtirish uchun ma'lumot yuborish
4. Ishtirokchini ko'rgazma chatiga qo'shish
5. O'lchov olish uchun maydonga chiqish

6. Stend dizaynini kelishish
7. Stend tayyorlash
8. Montaj ishlari
9. Ko'rgazma davomida ish olib borish
10. "Yil reklamasi" ko'rgazmasi ishtirokchisi diplomini topshirish
11. Demontaj ishlari

STENDLARNI BEZATISH VA KO'RGAZMADA ISHTIROK ETISH UCHUN UMUMIY QOIDALAR

Stendlarni loyihalash va bezatish talablari:

1. Ekspozitsiya maydoni 4x4 m, balandligi 3 m.
2. Stendda quyidagilardan biri bo'lishi mumkin:
 - o faqat orqa devor (banner, LED ekran)
 - o orqa va yon devorlar, shuningdek, pol qoplamasi (gilam, laminat va h.k.) – ishtirokchining xohishiga ko'ra
3. Yon devorlar mavjud bo'lsa, ishtirokchi yon devorning ichki va tashqi qismini, shuningdek, tashrif buyuruvchilarga qaragan uchki qismini bezatishi shart.
4. Stend maydonida tumba, stol, stoyka va boshqa konstruktsiyalarni o'rnatish mumkin.
5. Tashkilotchi 220V elektr nuqtasi bilan ta'minlaydi.
6. Stendning hech bir qismi (yoritgich, bayroq, dekor elementlar va h.k.) ajratilgan maydon tashqarisiga chiqmasligi kerak, vertikal proyeksiyada ham.
7. Ko'rgazmada chekish taqiqlangan. Chekish joylari tashqarida joylashgan.
8. Ochiq olov, pirotexnika, tutunli effektlar, yonuvchan moddalarni saqlash va ishlatish taqiqlanadi.
9. Stendda o'tkaziladigan lotereyalar, taqdimotlar va boshqa tadbirlar Tashkilotchi bilan kelishilishi kerak.
10. Barcha tadbirlar faqat stend chegarasida o'tkazilishi kerak. Boshqa ishtirokchilar va ularning mehmonlariga hurmat bilan yondoshuv so'raladi. Shikoyat bo'lsa, Tashkilotchi sizning stendingizdagi shovqinni to'xtatishga haqli.

Taom tayyorlash va taqdimot (food partners):

1. Taom tayyorlash uchun faqat elektr plitalar va pechlar qo'llanilishi mumkin
2. Ochiq olov, tutun va yoqimsiz hidlar taqiqlanadi
3. Yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalariga amal qilinishi shart
4. Dasturxonga tortish sanitariya qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak. Axlat chiqarish va stend atrofini toza saqlash ishtirokchi zimmasida
5. Shikoyatlar bo'lsa, Tashkilotchi taom tayyorlashni to'xtatishga haqli

Ko'rgazmada savdo qilish:

Savdo qilishga ruxsat etiladi.

Ko'rgazma muddati:

Barcha stendlar oxirgi montaj kuni Tashkilotchi tomonidan tekshiruvga tayyor bo'lishi shart. Shu sababli, stendingizni tekshirish va to'liq jihozlash uchun erta yetib kelishingiz kerak.

Ekspozitsiyalar solingan qutilar va qoplamalar oxirgi montaj kuni ochilib, olib tashlanishi kerak. Aks holda, Tashkilotchi ularni ishtirokchi hisobidan olib chiqib tashlash huquqiga ega. Ko'rgazma yopilganidan keyingina ekspozitsiyalarni qadoqlash va olib chiqishga ruxsat etiladi.


Demontajning so'nggi kuni maydon butunlay bo'shatilishi lozim – ekspozitsiyalar, konstruktsiyalar va chiqindilardan.

KO'RGAZMA "YIL REKLAMASI" STENDI UCHUN TEXNIK TOPSHIRIQ

11 oktyabr 2025 yil

Karting zonasi uchun umumiy parametrlar:

длина	100 метр
ширина	60 метр
Высота потолка:	
самая нижняя точка	1,9 метр
самая высокая точка	12 метр



TAF!25 stendini tayyorlash va joylashtirish bo'yicha texnik topshiriq:

- Ajratilgan maydon: 16 kv.m.
- Ichki o'lchamlar:
 - Orqa devor – 4 m
 - Har bir yon devor – 4 m

Stend variantlari:

1. II-shaklidagi, korpusli, yon devorlar yopiq bo‘lishi kerak (kamida 40-50 sm). Agar qo‘shni stendda yon devor bo‘lmasa, tashqi yon devor ham bezatilishi shart.
2. Faqat orqa devorli stend
3. Г-shaklidagi stend (orqa va bir yon devor)

Balandlik: 3 m

Pol bo‘lishi – ixtiyoriy

Tavsiya etiladi: faoliyatlar – o‘yinlar, fotoburchak, sovg‘alar, xodimlar va promo-personalning to‘liq ishtiroki

STEND PARAMETRLARI

- Tashqi orqa devor uzunligi – 4.8 m
- Ichki orqa devor uzunligi – 4 m
- Tashqi yon devor uzunligi – 4.4 m
- Ichki yon devor uzunligi – 4 m
- Yon va orqa devor karkasining qalinligi – 0.4–0.6 m
- Balandlik – 3 m

